
SAYYOR QABUL AHOLI MUAMMOLARI YeCHIMIGA XIZMAT QILDI

Bugun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi o'rinbosari, Prezident Xalq qabulxonasi rahbari U.I.Muxammadiyev tomonidan berilgan topshiriq asosida Toshloq tumanidagi "Piyozchilik" MFY hududidagi 39-umumta'lim maktabida sektorlar rahbarlarining sayyor qabuli o'tkazildi.

Sayyor qabulda tuman hokimi A.Djurabayev, tuman prokurori Sh.Musayev, tuman IIB boshlig'i A.Kattabekov, tuman DSI boshlig'i X.Xudoynazarov, tuman Xalq qabulxonasi mudiri S.Ismoilovlar hamda korxonalar va tashkilotlar rahbarlari ishtirok etdi.

Sayyor qabulda tuman hududida istiqomat qilayotgan jami 50 nafardan ziyod fuqarolar ishtirok etishdi. Qabul davomida 11 nafar fuqarolardan 15 ta masalalar bo'yicha murojaatlar kelib tushdi. Murojaatlarning 13 tasi bo'yicha ularni o'rganib chiqilishi uchun vaqt va hujjatlar talab etilishi zarurligi sababli nazoratga olinib, murojaatchilarga qonunda belgilangan tartibda javoblar berilishi tushuntirildi.

Sayyor qabulda hech bir murojaat e'tiborsiz qolmadi. Fuqarolarni qiynab kelayotgan masalalar bayonnomaga kiritilib, bajarilish muddatlari belgilandi.

2024-01-24 19:44:39